

“O‘zmilliybank” AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan yig‘ilish

B A Y O N I

“ 27 ” mart 2026 y.

Uchquduq t

Yig‘ilish raisi:

“O‘zmilliybank” AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi Sh.S.Amonov

Qatnashdilar:

“O‘zmilliybank” AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi o‘rinbosarlari hamda xodimlar (ro‘yxat asosida).
Qatnashchilar soni 35 nafar.

K U N T A R T I B I D A

1. 2017 yil 03-yanvardagi №419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risi”dagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni” talablarini o‘rganish;
2. 2024 yil 05-iyundagi №931-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi” to‘g‘risi”dagi Qonuni talablarini o‘rganish;
3. “O‘zmilliybank AJ Axborot va bank xavfsizligi departamenti direktorining 2025 yil 18-apreldagi 19-58-sonli ko‘rsatmasi talablari ijrosi bo‘yicha;
4. 2025 yil 10-dekabrgi №246-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni ijrosini monitoring qilib borish;

(Sh.S.Amonov, B.A.Xushvaqov, A.Ergashev, K.K.Abdikalikov, M.Isakova)

Kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zmilliybank” AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi Sh.S.Amonov so‘zga chiqib, bugungi kunda Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazib, inson huquq va erkinliklarining paymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, unga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etishini aytib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” to‘g‘risidagi Qonuni talablarini tushuntirib, korrupsiyaga qarshi kurashda korrupsion holatlarni barvaqt aniqlash, oldini olish ularni sabab shart-sharoitlarini oldini olish, bartaraf etish manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, hamda 2025 yil 10-dekabrgi №246-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni ijrosiga nisbatan muvofiq munosabatlarini shakllantirishga asosiy e‘tiborni qaratilishi lozimligini aytib o‘tdi.

Korrupsiyani oldini olishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish doirasida “O‘zmilliybank” AJ tizimida Axborot va bank xavfsizligi departamenti Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan Bank xodimlarining huquqiy ongini oshirish zarurligini aytib o‘tdi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, unga tanqidiy yondoshish kerakligini aytib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini aytib, Korrupsiya-o‘ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma‘naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf ekanligi bayon etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Naqdsiz xisob-kitoblarni ommalashtirish hamda biznes yuritishda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda biznesni soyadan chiqarishni rag'batlantirish maqsadida:

Quyidagilar 2030 yilga qadar yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib belgilangan:

(a) yalpi ichki masulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravarga qisqartirish;

(b) savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida aholi tomonidan to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirish ulushini 75 foizga yetkazish;

(v) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band aholining jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushini 64 foizga yetkazish;

(g) Iqtisodiy erkinlik indeksi va Korruptsiyani idrok qilish indeksida O'zbekiston Respublikasining o'zini kamida 30 pog'onaga ko'tarilishiga erishish bo'yicha aniq maqsadlar belgilab berilgan.

Kun tartibidagi masala bo'yicha "O'zmilliybank" AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi Xavfsizlik, bo'yicha mas'ul xodim O'J.Parmonov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasida ham korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlari qabul qilinib, hayotga tadbiq etilganligi, shuningdek Prezidentimizning 29.06.2020 yildagi PF-6013-sonli Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, bu borada faoliyat olib borilayotganligi, ma'lum qilindi.

Korruptsiyaga qarshi kurash borasida o'tgan davrda Uchquduq tumani bo'yicha sodir etilgan korruptsiya yo'nalishidagi jinoyatlari bo'yicha javobgarlikka tortilgan mas'ul mansabdor shaxslar va hozirgi kunda jazo muddatini o'tayotgan fuqarolarni misol keltirib, barchani bu turdagi jinoyatlarni sodir etmaslik uning oqibatlari va qo'llaniladigan jazo turlari haqida ogohlantirildi. Davlatimiz rahbari ko'plab ma'ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo'rlik, korruptsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiste'mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi to'g'risida aytib, Korruptsiya - shunday illatki, uni bir yoki ikki departament, tuzilma sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha xodimlarimiz, jamoa bo'lib unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkinligini aytib, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, bankda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatga erishish, korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslarga nisbatan qat'iy choralar ko'rish, to'g'ri va adolatli qarorlar qabul qilinsa, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklansa, ijtimoiy himoya kuchaytirilsa, xalqning jamiyatda adolat, haqiqat borligiga ishonchi ortadi. Uning aksi bo'lsa, odamlar orasida norozilik va hukumatga nisbatan ishonchsizlik yuzaga kelishini aytib o'tdi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan hatti-xarakatlar bejizga amalga oshirilmayotganligi, xususan banklar tizimida ham korruptsion hatti-xarakatlarga murosasiz bo'lishlik, xodimlar orasida nopok xodimlarni aniqlash va tegishli ta'sir choralari ko'rish ishlari davom etib kelayotganligini, mazkur harakatlar natijasida "O'zmilliybank" AJ Uchquduq bank xizmatlari markazida o'tgan yillar davomida biron-bir xodim tomonidan jinoyatlar yoki huquq buzarlilar sodir etilishiga yo'l qo'yilmaganligini, bank xodimlari bevosita aholiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hisoblanishi sababli, xodimlarni mijozlar bilan bo'layotgan munosabati, xodimlar tomonidan huquqbuzarlilar, ayniqsa korruptsiya bilan bog'liq hatti-harakatlarni sodir etmasliklari qattiq nazorat ostida bo'lishligi ta'minlanishi, shuningdek, xodimlar korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida ishlab chiqilgan normativ hujjatlarni o'qib o'rganib chiqishlari va tegishli bilimlarga ega bo'lishliklari lozimligini aytib, ish tizimini yanada takomillashtirishi lozimligini aytib, uchinchi shaxslar tomonidan axborot tizimlarining login va parollarini, bank siri, konfidensial va shaxsga doir ma'lumotlar, bankning xizmat yoki tijorat siridan iborat bo'lgan ma'lumotlar haqida axborot va ma'lumot olishga uringan hollarda, darhol bu haqida rahbariyatga xabar berishi lozimligi, ish kuni davomida va yakunida bank xodimlari tomonidan ish joyini tark etish vaqtida elektron kalitni kompyuterning USB-portida qoldirmasdan ularni ish joylaridagi maxsus qulflanuvchi javonlarga (seyf, tumba va h.k.) qo'yish kerakligi, elektron kalitlarni ish joyidan tashqariga olib ketishi va bank siriga oid ma'lumotlarni bankdan tashqariga olib chiqish, taqdim etish yuqorida keltirilgan internet tarmoqlari orqali tarqatish holatlari bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi muqararligi haqida tushuntirib o'tdi.

Naqdsiz to'lovlarni ommalashtirish choralari 2026 yil 1 apreldan boshlab quyidagilar uchun to'lovlar faqatgina bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi:

- (a) davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar;
- (b) elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlar (bundan bank kassalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar mustasno);
- (v) alkohol va tamaki mahsulotlari;
- (g) transport vositalariga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish va elektrda harakatlanadigan transport vositalarini zaryadlash bo'yicha xizmatlar;
- (d) qiymati 25 million so'mdan oshadigan tovar va xizmatlar (bundan qishloq xo'jaligi mahsulotlari mustasno);
- (j) ko'chmas mulk ob'ektlari, ishlab chiqarilganiga o'n yildan oshmagan M, N, O va G toifaga kiruvchi transport vositalari hamda maxsus avtotransport vositalarini sotish va sotib olish. Bunda:
- (i) oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha sotuvchi va xaridor o'rtasidagi hisob-kitoblar bank va notarial organlarning axborot tizimlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi orqali amalga oshiriladi (bundan bank kassalari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar mustasno);
- (ii) shartnomalarni notarial tartibda rasmiylashtirish uchun tijorat banklari va to'lov tashkilotlari tomonidan elektron axborot almashinuvi vositasida to'lovni tasdiqlovchi ma'lumotlar asos bo'ladi.

Quyidagilar:

(a) Markaziy bank 2026 yil 1 yanvarga qadar barcha savdo va xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan elektron to'lovlarni qabul qilish uchun yagona QR kodni joriy qilsin;

(b) Soliq qo'mitasi Markaziy bank bilan birgalikda 2026 yil 1 yanvardan boshlab barcha savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar tomonidan banklarda generatsiya qilingan yagona QR kod orqali elektron to'lovlarni qabul qilishni yo'lga qo'yish choralari ko'rsin. Bunda 2026 yil 1 iyuldan boshlab:

(i) barcha savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslarda yagona QR kodli to'lov tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish ham majburiy etib belgilanadi;


(ii) yagona QR kodlardan foydalanilmayotganligi savdo qoidalarini buzish deb hisoblanadi.

Yig'ilishda "O'zmilliybank" AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi Sh.S.Amonov takroran so'zga chiqib, Avtomatlashtirish bo'yicha bosh mutaxassi J.Sh.Nurnazarovga Uchquduq bank xizmatlari markazi va uning quyi tizimlaridagi xodimlarga birlashtirilgan komyuterlarini tekshirib, ish faoliyatiga taaluqli bo'lmagan foto, video materiallar hamda ruxsat etilmagan dasturiy ta'minotlar bo'lmashligini ta'minlashini talab qildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan "O'zmilliybank" AJ Uchquduq bank xizmatlari markazi boshqaruvchisi Sh.S.Amonov so'zga chiqib, yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni so'zsiz bajarilishini ta'minlanishini bu borada tegishli chora-tadbirlab belgilanib, ish tizimini yanada takomillashtirishini aytdi.

Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash Bosh buxgalter K.K.Abdikalikov, Chakana amaliyotlar bo'limi rahbari J.Dostonov, Xavfsizlik, bo'yicha ma'sul xodim O'.J.Parmonov va Avtomatlashtirish bo'yicha bosh mutaxassi J.Sh.Nurnazarovlar zimmasiga yuklatildi.

Bayonlashtirdi:



O'.J.Parmonov

27.03.2026 куні Ўзмилийбанк АЖ
Учқудуқ БХМ ходимлари билан
ўтказилган йиғилиш жараёни

